

XALQARO SUG’URTA AMALIYOTIDA STRESS-TEST MEXANIZMLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

Olmosova Munisa Sherxon qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot Universiteti, magistratura 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda xalqaro sug’urta amaliyotida stress-test mexanizmlarining sug’urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashdagi o’rni va ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida stress-testlarning nazariy asoslari, ularning riskka asoslangan nazorat tizimidagi roli hamda kapital yetarliligini baholashdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston sug’urta bozorida stress-test mexanizmlarini joriy etish va takomillashtirish bo‘yicha mavjud muammolar aniqlandi hamda ularga mos ilmiy-amaliy tavsiya va xulosalar shakllantirildi.*

Kalit so‘zlar: *Stress-test, moliyaviy barqarorlik, sug’urta risklari, kapital yetarliligi, risklarni boshqarish, riskka asoslangan nazorat.*

KIRISH

Bugungi kunda global moliyaviy tizimdagi beqarorliklar, makroiqtisodiy shoklar va bozor o‘zgaruvchanligi sug’urta sektorida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Sug’urta kompaniyalari nafaqat sug’urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qiladi, balki moliyaviy tizim barqarorligining muhim bo‘g‘ini sifatida iqtisodiyotning izchil ishlashiga hissa qo‘shadi. Shu bois ularning moliyaviy holatini oldindan baholash va potensial xatarlarni aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Xalqaro amaliyotda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning samarali vositalaridan biri stress-test mexanizmlaridir. Stress-testlar sug’urta kompaniyalarining ekstremal, ammo ehtimoldan holi bo‘lmagan salbiy ssenariylar sharoitida kapital yetarliligi va risklarga chidamliligini baholash imkonini beradi. Bu orqali moliyaviy shoklar, yirik sug’urta hodisalari yoki bozor inqirozlarining ta’siri oldindan aniqlanadi.

Yevropa Ittifoqining Solvency II tizimi hamda IAISning riskka asoslangan nazorat standartlarida stress-testlar sug’urta kompaniyalari barqarorligini baholashning ajralmas qismi sifatida belgilangan. Bunday yondashuv risklarni boshqarish madaniyatini rivojlantiradi va kapitalni oqilona rejalashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sug’urta bozori modernizatsiya jarayonida bo‘lganligi sababli, xalqaro tajribani, xususan stress-test mexanizmlarini o‘rganish va milliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tezisda stress-testlarning xalqaro amaliyotdagi o‘rni tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston sug’urta bozorida qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqiladi.

Metodlar (Methods). Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv bilan birga iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, taqqoslash, statistik baholash, guruhlashtirish va modellashtirish usullari qo‘llanildi.

Natijalar (Results). O‘tkazilgan nazariy va qiyosiy tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, stress-test mexanizmlari xalqaro sug‘urta amaliyotida sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, rivojlangan sug‘urta bozorlarida stress-testlar orqali sug‘urta tashkilotlarining kapital yetarliligi, to‘lov qobiliyati va risklarga bardoshliligi muntazam ravishda baholanadi hamda ushbu baholash natijalari boshqaruv va nazorat qarorlarida faol foydalaniladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, stress-test mexanizmlarini tizimli ravishda joriy etgan sug‘urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lib, ular bozor shoklari va kutilmagan sug‘urta hodisalariga tezroq moslashish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlangan. Stress-testlar yordamida potensial xavf-xatarlar oldindan aniqlanib, kapitalni qayta taqsimlash, qayta sug‘urtalash hajmini optimallashtirish va risk limitlarini qayta ko‘rib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatadiki, stress-test mexanizmlari riskka asoslangan nazorat tizimining samaradorligini oshiradi. Ushbu mexanizm orqali reguliatorlar sug‘urta bozoridagi tizimli risklarni aniqlash va moliyaviy beqarorlikning oldini olish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada sug‘urta sektorining umumiy barqarorligi mustahkamlanadi va sug‘urtalanuvchilar manfaatlari yaxshiroq himoyalanaadi.

Tahlillar (Analysis). Olingan natijalar stress-test mexanizmlarining sug‘urta sektorida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi roli nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ekanligini tasdiqlaydi. Stress-testlar sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holatini statik ko‘rsatkichlar asosida baholashdan dinamik risk baholashga o‘tish imkonini beradi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni faqat joriy holat emas, balki kelajakdagi potensial xavflar nuqtayi nazaridan baholashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, stress-test ssenariylarining real iqtisodiy sharoitlarga mosligi ularning ishonchliligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Milliy sug‘urta bozorining xususiyatlarini inobatga olmagan ssenariylar asosida o‘tkazilgan stress-testlar moliyaviy barqarorlikni baholashda noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu bois stress-test mexanizmlarini joriy etishda milliy bozor sharoitlariga moslashtirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi .

O‘zbekiston sug‘urta bozori misolida stress-test mexanizmlarini joriy etish sug‘urta kompaniyalarining risklarga chidamliligini oshirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish va bozor barqarorligini mustahkamlash uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Biroq ushbu jarayon samarali bo‘lishi uchun stress-testlar yagona metodologik asosda, shaffof va tizimli ravishda amalga oshirilishi hamda ularning natijalari boshqaruv qarorlarida real qo‘llanilishi zarur.

Xalqaro tajribada, xususan, Solvency II talablariga muvofiq, stress-testlar sug‘urta kompaniyalarining o‘z risk va solvency baholash jarayoni (ORSA) doirasida majburiy tartibda qo‘llaniladi. Ushbu mexanizm sug‘urta tashkilotlarini o‘z moliyaviy holatini doimiy ravishda monitoring qilishga, risklarni oldindan aniqlashga va kapitalni yetarli darajada rejalashtirishga undaydi. Natijada sug‘urta kompaniyalari kutilmagan moliyaviy zarbalarga nisbatan yuqori darajadagi moslashuvchanlikka ega bo‘ladi .

Stress-testlarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular sug‘urta kompaniyalariga faqat mavjud moliyaviy holatni baholash bilangina cheklanib qolmasdan, balki potensial xavf-

xatarlarni oldindan aniqlash va ular bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Shu orqali sug‘urta tashkilotlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va sug‘urtalanuvchilar manfaatlarining himoyasi ta’minlanadi.

Stress-test mexanizmlarining sug‘urta sohasida qo‘llanilishida quyidagi muammolar mavjud:

1. Stress-test mexanizmlarining institutsional jihatdan yetarli darajada shakllanmaganligi. Ko‘plab rivojlanayotgan sug‘urta bozorlarida, jumladan O‘zbekiston sug‘urta sektorida stress-test mexanizmlari yagona metodologik asosga ega emas.

2. Malakali kadrlar va analitik salohiyatning yetishmasligi. Stress-testlarni samarali o‘tkazish yuqori darajadagi aktuar, moliyaviy va risk-tahliliy bilimlarni talab etadi. Aksariyat sug‘urta kompaniyalarida risklarni modellashtirish, ssenariy tahlili va kapital baholash bo‘yicha yetarli tajribaga ega mutaxassislar yetishmaydi.

3. Ma’lumotlar bazasining cheklanganligi va sifati pastligi. Stress-testlarning aniqligi va ishonchliligi mavjud statistik va moliyaviy ma’lumotlar sifatiga bevosita bog‘liq.

4. Stress-test natijalaridan boshqaruv qarorlarida yetarlicha foydalanilmasligi. Amaliyotda stress-testlar ko‘pincha regulyator talablarini bajarish vositasi sifatida qabul qilinadi.

5. Milliy bozor xususiyatlariga moslashtirilgan ssenariylarning yetishmasligi. Xalqaro tajribaga asoslangan stress-test ssenariylari har doim ham milliy sug‘urta bozorining o‘ziga xos jihatlarini to‘liq aks ettirmaydi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida stress-test mexanizmlarini joriy etish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashuv jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Bunda stress-testlarni milliy bozorning xususiyatlari, sug‘urta portfelinig tuzilishi va makroiqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, stress-test mexanizmlari xalqaro sug‘urta amaliyotida sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim va samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu mexanizm sug‘urta tashkilotlariga ekstremal sharoitlarda moliyaviy holatni baholash, kapital yetarililigini aniqlash va risklarga bardoshlilik darajasini oshirish imkonini beradi. Xalqaro tajriba stress-testlarning riskka asoslangan nazorat tizimida preventiv mexanizm sifatida muhim o‘rin egallashini ko‘rsatmoqda.

Yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarga quyidagi yechim va tavsiyalarni berish mumkin:

1. Stress-testlar uchun yagona metodologik bazani shakllantirish. Sug‘urta nazorati organlari tomonidan stress-testlarni o‘tkazish bo‘yicha yagona metodologiya ishlab chiqilishi lozim. Ushbu metodologiya xalqaro standartlarga mos bo‘lishi bilan birga, milliy bozor sharoitlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan bo‘lishi zarur. Bu stress-testlarning tizimlilikini va natijalarning solishtirilishini ta’minlaydi.

2. Kadrlar salohiyatini oshirish va malaka oshirish dasturlarini joriy etish. Sug‘urta kompaniyalari va regulyatorlar uchun aktuar va risk-menejment yo‘nalishlarida maxsus o‘quv dasturlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Xalqaro ekspertlar ishtirokida treninglar o‘tkazish stress-test mexanizmlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

3. Axborot infratuzilmasini rivojlantirish. Sug’urta bozorida yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish, tarixiy sug’urta hodisalari va moliyaviy ko’rsatkichlar bo’yicha ma’lumotlarni tizimlashtirish stress-testlarning aniqligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar va analitik platformalardan foydalanish ushbu jarayonni tezlashtiradi.

4. Stress-test natijalarini strategik boshqaruv bilan integratsiya qilish. Stress-test natijalari sug’urta kompaniyalarining kapital rejalashtirish, qayta sug’urtalash strategiyasi va risk limitlarini belgilash jarayonlariga bevosita integratsiya qilinishi lozim. Bu stress-testlarni faqat nazorat vositasi emas, balki boshqaruv qarorlarini qo’llab-quvvatlovchi instrumentga aylantiradi.

5. Milliy iqtisodiy sharoitlarga mos ssenariylar ishlab chiqish. Stress-test ssenariylari O’zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy xususiyatlari, sug’urta bozorining tuzilmasi va asosiy risk omillarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Bu stress-test natijalarining real va amaliy ahamiyatini oshiradi.

O’zbekiston sug’urta bozorida stress-testlarni bosqichma-bosqich joriy etish sug’urta kompaniyalarining moliyaviy intizomini kuchaytirish, risklarni samarali boshqarish hamda bozorning umumiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, stress-test natijalaridan strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda faol foydalanish sug’urta sektorining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA). Solvency II Framework Overview. — Frankfurt am Main, 2021.
2. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Insurance Core Principles: Stress Testing and Risk Assessment. — Basel, 2020.
3. Cummins, J.D., Mahul, O. Catastrophe Risk Financing in Developing Countries. — Washington: World Bank Publications, 2009. — 248 p.
4. Sandström, A. Handbook of Solvency for Actuaries and Risk Managers. — Boca Raton: CRC Press, 2011. — 448 p.
5. Шахов В.В. Страхование: Учебник. — Москва: Юрайт, 2020. — 512 с.
6. Ковалев В.В., Петров А.А. Финансовая устойчивость страховых организаций и методы ее оценки. — Москва: Финансы и статистика, 2019. — 224 с.
7. Егорова М.С. Риск-менеджмент в страховых компаниях. — Санкт-Петербург: Питер, 2018. — 304 с.
8. Harrington, S., Niehaus, G. Risk Management and Insurance. — New York: McGraw-Hill, 2014. — 720 p.
9. Swiss Re Institute. Global Insurance Review and Outlook. — Zurich, 2022.
10. OECD. Stress Testing in the Insurance Sector: International Practices and Challenges. — Paris: OECD Publishing, 2021.